



**“QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA NOK
PAYVANDTAGLARINI HAR XIL EKISH SXEMASIDA EKILGAN
KO‘CHATZORIDA FENOLOGIK VA BIOMETIRIK
KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH”**

Yusupova Malohat Sadillaevna

akademik M.Mirazev nomidagi BUVITI 3-bosqich doktoranti (PhD)

Annotatsiya: *Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orolbo‘yi mintaqasi tuproq-iqlim sharoitida nokning payvandtaglarini har xil ekish sxemasida ekilib er ustki qismining biometirik ko‘rsatkichlarini o‘rganganildi*

Kalit so‘zlar: nokning payvantagi

Аннотация: *В почвенно-климатических условиях Аралбойского района Республики Каракалпакстан изучены биометрические параметры надземной части прививок груши, посаженных при различных схемах посадки.*

Abstract: *In the soil and climatic conditions of the Aralboy region of the Republic of Karakalpakstan, the biometric parameters of the above-ground part of pear grafts planted under different planting schemes were studied.*

Hozirgi zamonaviy intensiv bog‘larning barchasi urug‘li mevalar Nok va nok yekinlaridan tashkil topgan, ularning pakana va yarim pakana vegetativ ko‘payuvchi payvandtaglari keng miqyosida yetishtirilib kelinmoqda. yerishilgan yutuqlar bilan birgalikda sohada hali talaygina bajarilishi kerak bo‘lgan tadbirlar o‘z yechimini kutmoqda. Shulardan biri intensiv tipdagi urug‘li mevalar ko‘chatlarini yetishtirish hamda urug‘li mevalar intensiv bog‘larni barpo qilish dolzarb masaladir.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Orolbo‘yi mintaqasiga mos, noyob belgi va xususiyatlarga yega yevropa va mahalliy nok navlari orasidan zamon talabiga javob beruvchi istiqbolli nav tanlab olib, uni ko‘paytirish, sog‘lomlashtirish va nok navlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda plantatsiyalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishni o‘z oldimizga maqsad



qilib qo'ydik.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasiga iqlimlashtirilgan yevropa va mahalliy nok navlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va plantatsiyalarini yaratish bo'yicha bir qator vazifalar belglab olindi:

- yevropa va mahalliy nok navlarini yetishtirish bo'yicha vegetatsion tajribalar o'tkaziladi;

- Evropa nok navi navlaridan "Olive de Serr" va oddiy nok turiga solishtirib, turli variantlarda sho'rlanish darajasiga qarab yer maydonlarining agrokimyoviy tahlillari o'tkaziladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlim sharoitida sho'rga va issiqqa chidamli yevropa va mahalliy nok navlaridan plantatsiyasi tashkil yetiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasiga iqlimlashtirilgan yevropa va mahalliy nok navlarini yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi.

Natijada ilk bor, Orolbo'yi mintaqasiga mos iqlimlashtirilgan yevropa va mahalliy nok navlarini yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi, jahon standartlariga mos raqobatbardosh, sho'rga va issiqqa chidamli yevropa va mahalliy nok navlaridan plantatsiya tashkil yetiladi.

Tadqiqotni olib borish sharoiti va uslubi. Tadqiqotlar bo'yicha ilmiy izlanishlar 2024-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanida joylashgan Akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasining dala tajriba maydonlarida o'tkazildi. Tadqiqotlar o'tkazilayotgan 2024 yilda may oyidan boshlab havo harorati 2023 yilga nisbatan sezilarli darajada pastroq harorat kuzatildi. May oyi I-dekadasi II-dekadaga nisbatan -1,2 darajaga pastroq bo'lib 4,4 darajani kursatdi. Kunduzlari havo harorati o'rtacha may oyi davomida +26 daraja kechasi yesa o'rtacha +15 daraja bo'lganligi kuzatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Orolbo'yi mintaqasi tuproq-iqlim sharoitida nokning payvandtaglarini har xil ekish sxemasida ekilib er ustki qismining biometirik ko'rsatkichlarini o'rganildi. 90x15 sm ekish sxemasida o'rganilganda Xon nashvatisi (nazorat) payvandtagida novdalarning uzunligi 66 smni, dimetri 14,8 mm va



novdadagi barglar soni esa 82,4 dondni tashkil qildi. Almurt payvandtagida novdalarning uzunligi 112 smni, dimetri 17,3 mm va novdadagi barglar soni 97 dondni tashkil qildi. Yurt nashvatisi payvandtagida novdalarning uzunligi 87 sm, novdalarning diometri 15,9 mm va barglarning o'rtacha soni esa 86,2 donani tashkil qildi. Behi A payvandtagida payvandtagida novdalarning novdalarining uzunligi 69 sm, novdalarning diometri 15,4 mm va barglarning o'rtacha soni esa 81,6 donani tashkil qildi.

Nok payvandtaglarini er ustki qismini 90x20 sm ekish sxemasida o'rganganimizda Xon nashvatisi (nazorat) payvandtagida novdalarning uzunligi 68 smni, dimetri 13,6 mm va novdadagi barglar soni esa 83,6 dondni tashkil qildi. Almurt payvandtagida novdalarning uzunligi 110 smni, dimetri 16,4 mm va novdadagi barglar soni esa 92 dondni tashkil qildi. Yurt nashvatisi payvandtagida novdalarning uzunligi 95 sm, novdalarning diometri 15,8 mm va barglarning o'rtacha soni esa 85,6 donani tashkil qildi. Behi A payvandtagida payvandtagida novdalarning novdalarining uzunligi 72 sm, novdalarning diometri 15,3 mm va barglarning o'rtacha soni esa 84,9 donani tashkil qildi.

Payvandtaglarini er ustki qismini 90x25 sm ekish sxemasida o'rganganimizda esa Xon nashvatisi (nazorat) payvandtagida novdalarning uzunligi 67 smni, dimetri 13,9 mm va novdadagi barglar soni esa 80,5 dondni tashkil qildi. Almurt payvandtagida novdalarning uzunligi 95 smni, dimetri 15,6 mm va novdadagi barglar soni esa 90,3 dondni tashkil qildi. Yurt nashvatisi payvandtagida novdalarning uzunligi 84 sm, novdalarning diometri 14,8 mm va barglarning o'rtacha soni esa 85,3 donani tashkil qildi. Behi A payvandtagida payvandtagida novdalarning novdalarining uzunligi 70 sm, novdalarning diometri 13,7 mm va barglarning o'rtacha soni esa 79,2 donani tashkil qildi. (3.2.1-jadval)

3.2.1-jadval

Nokning har xil sxemada ekilgan payvandtaglarini er ustki qismining biometrik ko'rsatkichlari

(Qoraqolpog'iston Respublikasi, Akademik M.Mirzaev nomidagi BU va VITI Kegeyli ilmiy tajriba stantsiyasi, 2024 y).



T\r	Payvandtaglar	Ekilgan sana, oy, kun	Ekilgan payvandtaglar soni, dona	Novdaning uzunligi, sm	Novdaning diometri, mm	Burglar soni, dona
(ekish sxemasi 90x15 sm)						
1.	Xon nashvatisi (nazorat)	29. IV	200	66	14,8	82,4
2.	Almurt	29. IV	200	112	17,3	97
3.	Yurt nashvatisi	29. IV	200	87	15,9	86,2
4.	Behi A	29. IV	200	69	15,4	81,6
(ekish sxemasi 90x20 sm)						
1.	Xon nashvatisi (nazorat)	29. IV	200	68	13,6	83,6
2.	Almurt	29. IV	200	110	16,4	92
3.	Yurt nashvatisi	29. IV	200	95	15,8	85,6
4.	Behi A	29. IV	200	72	15,3	84,9
(ekish sxemasi 90x25 sm)						
1.	Xon nashvatisi (nazorat)	29. IV	200	67	13,9	80,5
2.	Almurt	29. IV	200	95	15,6	90,3
3.	Yurt nashvatisi	29. IV	200	84	14,8	85,3
4.	Behi A	29. IV	200	70	13,7	79,2

Ko‘rinib turibiki nokning 90x15 sm ekish sxemasida ekilgan Almurt payvandtagi nazorat variantiga nisbatdan novdalarning o‘rtacha uzunligi 46 sm, novdalarning diometri 2,5 mm, barglar soni esa 14,4 donaga nazorat variantiga nisbatdan ko‘p ekanligi aniqlandi (3.2.2-jadval)

Nok payvandtaglarini 90x15 sm ekish sxemasida ekilib ildizlarining rivojlanishini o‘rganganimizda Xon nashvatisi (nazorat) payvandtagida ildizlarning o‘rtacha soni 24,4 dona, uzunligi esa 82 sm ni tashkil qildi. Almurt payvandtagida ildizlar soni 41,5 dona, ildiz uzunligi esa 117 sm ni tashkil etti. Yurt nashvatisi payvand tagida ildizlar soni 32,7 donani, ildizlar uzunligi 94 sm ni tashkil qildi. Behi A payvandtagida ildizlar soni 39,4 donani, uzunligi esa 112 sm ni tashkil qildi.

Xulosa: Yuqorida tajribalarimizda har xil ekish sxemasida ekilgan payvandtaglar o‘rganganilganda ekish sxemasi 90x15 sm ekilgan payvandtaglardan eng yaxshi ko‘rsatkichlarni Almurt payvandtagida qayt etildi yani nazorat



varyantimizga nisbatdan olganda ildizlarning soni 17,5 donaga ko'p, uzunligi esa 35 sm ga farq qilganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ostanaqulov T.E., Islamov C.Y., Xonqulov X.X., Sanaev S.T., Xolmirzaev D.K., "Mevachilik sabzavotchilik" S., 2011-y 232-250 b
2. Normuratov I.T. Olmani past boyli payvandtaglarda ko'chatini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish. – Q.x.n. avtoreferati. - T., 2012. –B.13-14.
3. Rajametov Sh., Abrorov Sh "Zamonaviy intensiv nok bog'larini yaratish va parvarishlash texnologiyasi" Toshkent "Bakteria press", 2018. b – **11-80**
4. Aripov A.U., Aripov A.A., "Urug'li intensiv meva bog'lari" Toshkent: "Sharq", 2013 –b **108-121.**